Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Said Rizo Alizoda ijodining o'rganilish tarixi va undagi munozarali masalalar

Yunusjon Safarov*
✉ yunusjons844@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Said Rizo Alizodaning pedagogik, jurnalistik va ijtimoiy faoliyatini o'rganish tarixi tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi 1964-yildan bugungi kungacha yaratilgan ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish hamda mavjud tadqiqotlarda uchraydigan faktologik nomuvofiqliklarni aniqlash va tasniflashdan iborat. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil va manbashunoslik usullaridan foydalanildi: birlamchi manbalar (muallifning o'z maqolalari, avtobiografik ma'lumotlar) ikkilamchi adabiyotlar (monografiya, dissertatsiya va ilmiy maqolalar) bilan qiyoslandi. Tahlil natijasida ma'rifatparvar olim tamonidan yuritilgan jurnalning nashr tili, olimning tahsil olgan joyi, ayrim voqealarning sanasi, taxalluslari va iqtibos manbalariga oid bir qator ziddiyatlar aniqlandi. Xususan, "Shu'lai inqilob" jurnalining tojik tilida chop etilgani haqidagi ma'lumot muallifning o'z e'tirofiga zidligi, shuningdek, olimning tahsil joyi xususida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar berilgani ko'rsatildi. Maqola natijalari jadidshunoslik sohasidagi keyingi izlanishlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar

Said Rizo Alizoda, jadidchilik, tarixshunoslik, publitsistika, biografik tadqiqot.

DOI: 10.5281/zenodo.21743212

Kirish. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik harakati tarixini o'rganishda alohida shaxslar faoliyatini kompleks tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday ijtimoiy harakatning mohiyati va yo'nalishi, ko'p jihatdan, uni boshqargan yoki unga g'oyaviy asos bergan konkret shaxslarning faoliyati orqali ochib beriladi. Said Rizo Alizoda – XX asr boshlarida Samarqandda faoliyat yuritgan, pedagogika, jurnalistika va ijtimoiy sohalarda sezilarli iz qoldirgan jadid ma'rifatparvarlaridan biri. U bir vaqtning o'zida maktab ochgan, dars bergan, matbuotda faol qatnashgan hamda o'quv darsliklari va ilmiy-badiiy asarlar yaratgan ko'p qirrali ziyoli sifatida davrining ilg'or fikrlari bilan yashagan [1].

Shunday bo'lsa-da, uning merosi sovet davrida uzoq vaqt "xalq dushmani" tamg'asi ostida qolib ketgan, shu bois ma'rifatparvar olim ijodini ilmiy o'rganish kechroq boshlangan. Qatag'on siyosati oqibatida nafaqat olimning o'zi, balki uning oilasi ham yigirma yildan ortiq davr mobaynida og'ir sinovlarni boshidan kechirgan, bu esa uning merosini o'z vaqtida to'plash va tadqiq etishga to'sqinlik qilgan. Natijada, Said Rizo Alizoda faoliyatiga oid ko'plab dalillar parchalanib, turli manbalarda tarqoq holda saqlanib qolgan – bu holat bugungi kunda uning ijodini yaxlit va tizimli tarzda o'rganishni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Asosiy qism. Said Rizo Alizoda ijodini o'rganish tarixi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlanadi. 1964-yilda G'aybulla as-Salom "Til va tarjima" nomli kitobida XX asr birinchi choragidagi publitsistik asarlar orasida "S.A." imzosi bilan e'lon qilingan maqolalarga e'tibor qaratib, bu masalani jiddiy o'rganish niyatini bildirgan edi [2]. Shunday qilib, hali siyosiy qatag'on siyosati yakuniga yetmagan davrda "xalq dushmani" sifatida qatag'on qilingan ijodkor merosi ustida ilmiy izlanish boshlandi.

1970-yilda nashr etilgan "Samarqand tarixi" (2-jild)da Said Rizo Alizoda 1919 yildan Samarqandda tojik tilidagi "Shu'lai inqilob" jurnalining muharriri sifatida tilga olinadi [3]. Keyingi o'n yilliklarda uning hayoti va ijodiga bag'ishlab Y. Aliasqarov, S. Otabullayev, A. Muxtarov, X. Irfon, M. Muqimov, V. Larsev,

E. Xo‘jayev, X. Mirzozoda va boshqa qator olimlar tomonidan ilmiy maqolalar chop etilgan, ammo ularning aksariyati olim haqida umumiy, birlamchi ma’lumotlar berish bilan cheklangan.

1979-yilda Hasan Irfonning “Kosiblar kulbasi” romanida Said Rizo Alizoda hayotiga oid ma’lumotlar badiiy shaklda aks ettirilgan [4]. 2000-yilda Қатағон қурбонлари хотира музейи тўпланган материаллар тўпламида olimning Samarqanddagi madaniy-ma’rifiy faoliyati yanada kengroq yoritilgan [5]. Farmon Toshev [6], Bekmurod Yo‘ldoshev [7], A.Z. Xasanov [8] kabi mualliflar olimning oilasi, shogirdlari va pedagogik faoliyatiga oid qo‘shimcha dalillarni jamoatchilik e’tiboriga havola qilishgan.

Tojikistonlik tadqiqotchilardan M.S. Jurayeva o‘z dissertatsiyasida olimning tilshunoslikka oid qarashlarini tahlil qilib, uning “Sarf va nahvi tochiki” asari tojik tili tarixida dastlabki savodxonlik vositasi bo‘lganini ta’kidlashgan [9]. 2023-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston tarixi” IX jildida olimning Samarqanddagi madrasa ta’limi va yozgan o‘n bir darsligi haqida ma’lumot berilgan [10]. Shuningdek, Galiba Hojiyeva [11] S. Otabullayev, , D.Y. Xojiyeva va G.B. Nematova kabi zamonaviy mualliflar olimning jurnalistik va pedagogik faoliyatini jadidchilik matbuoti kontekstida tahlil qilishgan [12].

Yuqoridagi adabiy sharhdan ko‘rinib turibdiki, Said Rizo Alizoda merosi xususida mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017-2023-yillarda salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Shu bilan birga, mavjud manbalarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida bir qator faktologik nomuvofiqliklar aniqlandi, ular maqolaning asosiy qismida ko‘rib chiqiladi.

Manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi munozarali masalalar aniqlandi. Birinchidan, “Shu’lai inqilob” jurnalining nashr tiliga oid ziddiyat mavjud. “Samarqand tarixi” (1970) asarida jurnal tojik tilida chop etilgani qayd etilgan bo‘lsa [3], Said Rizo Alizodaning o‘zi “Haqsiz hujumga javob” maqolasida (1924) jurnalning fors tilida nashr etilganini ochiq tan olgan [13]. Birlamchi manba sifatida voqea ishtirokchisining o‘z so‘ziga ko‘proq ishonch bildirish lozim, ammo bu masala alohida arxiv tadqiqotini talab etadi.

Ikkinchidan, olimning tahsil olgan joyi borasida qarama-qarshilik uchraydi. “O‘zbekiston tarixi” IX jildida u Samarqand madrasasida olti yil ta’lim olgani yozilgan bo‘lsa-da, madrasa nomi ko‘rsatilmagan. Ayni paytda boshqa manbalarda uning Eronning Mashhad va Boku shaharlarida tahsil olgani haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib [14], bu ikki versiya bir-biriga zid keladi va birlamchi manbalarga olimning o‘z avtobiografiyasiga murojaat qilishni talab etadi.

Uchinchidan, voqealar ketma-ketligida xronologik nomuvofiqlik kuzatiladi: Iosif Braginskiyning Farhod Alizoda bilan 1984-yilgi suhbati matnida ushbu xotira go‘yoki 1952-yilda so‘zlab berilgani ta’kidlanadi [15], bu esa voqealar izchilligiga zid. Shuningdek, ayrim o‘rinlarda Farhod Alizoda Said Rizo Alizodaning nabirasi, boshqa o‘rinda esa o‘g‘li sifatida tilga olinadi. Bu xronologik nomuvofiqlikni ochiq arxiv hujjatlari asosida aniqlashtirish zarur deb hisoblaymiz.

To‘rtinchidan, Bekmurod Yo‘ldoshev maqolasida qayd etilgan “Charanduy” taxallusi boshqa biror muallif ro‘yxatida uchramaydi, shuningdek, 1906-yilda maktabdagi o‘qituvchilar soni (15 nafar) haqidagi ma’lumot ham boshqa manbalarda tasdiqlanmaydi. Bunday yagona manbaga asoslangan dalillar qo‘shimcha tasdiqni talab qiladi. Beshinchidan, Hasan Irfonning “Kosiblar kulbasi” romanida Shayx Ganjiy obrazi (Abulqosim al-Ganjiy (Shayx Turk) 1901 yilda Iroqning Bag‘dod shahridan Samarqandga ko‘chib kelgan–muallif) salbiy tasvirlangan bo‘lsa-da, Said Rizo Alizodaning o‘z maqolalarida aynan shu shaxs haqida iliq fikrlar bildirilgani ma’lum. Bu tafovut muallifning o‘zi tomonidan sovet senzurasidan o‘tish uchun qo‘llanilgan badiiy hiyla sifatida izohlanadi, ammo bu taxmin ham qo‘shimcha arxiv hujjati bilan tasdiqlanishi lozim.

Aniqlangan ushbu nomuvofiqliklar shuni ko‘rsatadiki, Said Rizo Alizoda biografiyasini to‘liq va xolis rekonstruksiya qilish uchun mavjud ikkilamchi adabiyotlar bilan cheklanib qolmasdan, birlamchi manbalar va tadqiqotlar olimning o‘z asarlari, arxiv hujjatlari va zamondoshlarining bevosita guvohliklari asosida alohida manbashunoslik tadqiqoti olib borilishi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Said Rizo Alizoda ijodini o‘rganish tarixi 1964-yildan boshlanib, mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017-2023-yillarda sezilarli jonlanish kuzatdi. Bu davrda olim faoliyatining turli qirralari – pedagogik, jurnalistik va ijtimoiy jihatlari – bir qator tadqiqotchilar tomonidan alohida-alohida yoritilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati hali ham umumiy va bir-biridan uzilgan ma’lumotlar bilan cheklanib qolmoqda. Shu bois, olim merosini yaxlit tizim sifatida idrok etish uchun mavjud tadqiqotlarni bir joyga jamlash va ularni

tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan qiyosiy tahlil mavjud manbalarda jurnal tili, ta’lim olgan joy, voqealar sanasi, taxallus va iqtibos manbalariga oid bir qator faktologik nomuvofiqliklar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi. Ushbu nomuvofiqliklarning aksariyati manbalarning bir-biridan mustaqil holda, ko‘pincha ikkilamchi adabiyotlarga tayangan holda yaratilgani bilan izohlanadi, bu esa xatolarning davriy takrorlanishiga sabab bo‘lgan. Ushbu ziddiyatlarni bartaraf etish kelgusi tadqiqotlarda alohida manbashunoslik tahlilini talab etadigan ustuvor vazifalardan biriga aylanadi. Olimning arxiv hujjatlari va birlamchi manbalari asosida olib boriladigan tadqiqotlar Said Rizo Alizoda shaxsiyati va merosini yanada xolis yoritishga, shuningdek, jadidshunoslik sohasidagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Советские писатели: автобиографии. – Москва: “Художественная литература”, 1966. Т. 3. – С. 311.

[2] Умиров С. Саид Ризо Ализода – самарқандлик мутафаккир // “Ҳуррият” газетаси. 2008. №8 (568).

[3] Самарқанд тарихи: 2-жилд / И.И. Мўминов ва бошқалар таҳрири остида. – Тошкент: “Фан”, 1970. – Б. 95.

[4] Ирфон Ҳ. Косиблар кулбаси (роман). – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 69–70.

[5] Абдухолиқзода Қ. Ўз ҳаётимдан баъзи бир хотиралар (эълон қилинмаган ёднома). Қатағон қурбонлари хотира музейи жорий архиви. 2-дафтар, 46-48 бет.

[6] Ализода Ф. Сайид Ризо Ализода адабиёти. – Тошкент, 2017. – Б. 184-185.

[7] Йўлдошев Бекмурод. Шарқ маърифатпарварлигининг йирик вакили // “Зарафшон” газетаси, 2008, 2 февраль. –Б.3.

[8] Хасанов А.З. История моей бабушки-матери, воспитавшей сыновей, которые отдали свою жизнь за Родину. // Электрон ресурс: https://www.tvosibgtv.ru/others/hasanov-az-istoriya-moej-babushki.html

[9] Джураева, М. Истилоҳоти сарфӣ дар забони тоҷикӣ ва англисӣ. Маҷаллаи илмӣ омӯзишии муҳаққиқони ҷавон. №9. Нашр матбааи ДДОТ ба номи С.Айни, 2016. – С.65-66.

[10] Ўзбекистон тарихи: IX том (Самарқанд тарихи). — Тошкент: “Ўзбекистон”, 2023. – Б. 271.

[11] Ҳожиева Г. Озарбайжон ўзбек драмалари тадқиқот ва тарқалиш масалалари // Жадид драмалари поэтикаси ва саҳналаштириш масалалари мавзусидаги Республика илмий-амалий конфренция материаллари тўплами. – Тошкент, 2023. – Б. 29-35.

[12] Саид Ризо Ализода таваллудининг 130 йиллиги. Республика илмий конфренция материаллари тўплами. – Тошкент: Машҳур прес. 134-бет.

[13] Сайид Ризо Ализода. Ҳақсиз ҳужумга жавоб // “Зарафшон” газетаси, 1924. № 109.

[14] Саидов Ҳ. Маърифат либосидаги озодлик. – Тошкент: “Шарқ”, 2000. – Б. 150.

[15] Ализода Ф. Сайид Ризо Ализода адабиёти. – Тошкент, 2017. – Б. 88.